REKLAMA, E'ONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

### TANLOVDA QATNASHING!

Bulung'ur tuman "Lalmikor" MFY hududidan 200 metr chuquqrilikdan aholi iste'moliga mo'ljallangan ichimlik suvi chiqarish uchun burg'ulash xizmatini ko'rsatuvchi korxonalar o'rtasida tanlov o'tkaziladi. Talabgorlar O'zbekiston "Qizil Yarim oy jamiyat" Samarqand viloyat tashkilotiga murojaat etishlarini so'raladi.

**Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 52-uy.**

Murojaat uchun telefonlar:

+99866-233-36-25,  
+99866-233-36-47,  
+99866-233-51-54.

\*\*\*

### DA'VOLAR BO'LSA...

Toyoq tumani "Tashkiliy fayz savdo" mas'uliyati cheklangan jamiyatiga qarashi "Lola" unitar korxonasi (STIR: 203074874) tugatilmoqda.

Shu munosabat bilan unga bildiriladi-gan barcha e'tirozlar gazetada e'on chop etilgach, ikki oy davomida qabul qilinadi.

**Korxonaning pochta manzili: Toyoq tumani Beruniy ko'chasi, 49-uy.**

\*\*\*

Samargand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minquolvich notarial idorasida marhum Niyazova Oydin Jo'ra-qulovnaga (2023-yil 16-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Mo'minquolvich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-uy.**

\*\*\*

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashurova Dilafraz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Djurayev Asatillo Djomurodovichga (2023-yil 6-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ashurova Dilafraz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak sha-harchasi, Iстиqlol ko'chasi, 110-uy.**

\*\*\*

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashurova Dilafraz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Djurayev Asatillo Djomurodovichga (2023-yil 6-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ashurova Dilafraz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak sha-harchasi, Iстиqlol ko'chasi, 110-uy.**

\*\*\*

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Saydaliyev Kattaxon Maxamatovichga (2021-yil 6-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak sha-harchasi, Iстиqlol ko'chasi, 73-uy.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Alisher Toshboltayevich notarial idorasida marhum Latipov Azam Azimovichga (2020-yil 6-novabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Norqulov Alisher Toshboltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Firdavsiy ko'chasi, 95-uy.**

\*\*\*

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum

**Manzil: Ishtixon shaharchasi Ishtixon ko'chasi, 20-uy.**

\*\*\*

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Kamilov Azam Aslamovichga (2023-yil 10-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 51-uy.**

\*\*\*

Ishtixon tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xaliquq Jamshid Abdurashidovich notarial idorasida marhum Kurbonov Turdiga (2015-yil 3-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xaliquq Jamshid Abdurashidovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Ishtixon shaharchasi Ishtixon ko'chasi, 20-uy.**

\*\*\*

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.**

\*\*\*

**BEKOR QILINADI**

Payariq tumanidagi Xayitov Yorqinjon G'ayratovich yakka taribdagi tadbirkori-

ning (JSHSHR: 3210572608015) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

## MO'L-KO'LCHILIKDA, BOY-BADAVLAT YASHASHNI XOHLASAK...

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Iste'mol madaniyatining pastligi oqibatida mamlakatda nodir va bebablo iqtisodiy resurslardan foydalanishda, ulardan tayyorlanan tayyor mahsulot va xizmatlarni iste'mol qilishda katta isrofgar-chiliklarga yo'l qo'yilmoqda, tejamkorlik tamoyillari qo'pol tarzda bузilmoqda. Ayniqsa, dehqonlarining mashaqqatini mehnati evaziga yaratilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari yig'ib-terib olish, ularni transportirovka qilish, saqlash, el dasturxoniga yetkazib berish, jarayonlarda iqtisodiy savodxonlikning davr talablarini darajasida emasligi, iqtisodiy intuitsiyaning yetishmasligi, iqtisodiy qoqibatida ishlab chiqarilgan noz-ne'matlarning talaygina qismi nobud bo'limoqda.

Iktimo iqtisodiy chiqarish mamalakatining hayot farovonligini yuksaltirishni, moddiy va ma'naviy noz-ne'matlarni iste'mol kuchilg'ini ta'minlashga erishishni mo'jaliga oladi, yilgi tovfiga xizmatlarni yaratadi. Agar iqtisodiy taraqqiyotning yekuniga qo'shdan qoidasini inobatga oladigan bo'lsak, iqtisodiy savodxonlikning yetishmasligi, bilmisligimiz oqibatida yuzaga kelayotgan bunday yo'qotishlar-

ni qanchalik tez bartaraf etsak, hayotimiz ham shuncha tez farovon bo'lishi shubhasiz. Iktimo iqtisodiy chiqarishdan bosh maqсад noz-ne'matlarni shunchaki ishlab chiqarish emas, balki pirovard nati-jada, ularni iste'mol qilish, farovonlikka erishishdan iborat.

Ikkinchisi - mamlakatda, xusu-san, yoshlarimizda iqtisodiy tafakkur yuritish qobiliyatini rivojlantirish, aholida kognitiv tafakkur ko'nikmalari shakllantirish, eng muhimi, uni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ye-takchi omiliga yekunligi taraqqiyotning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish.

Mamlakatning iqtisodiy pov-devorini shakllantirishda iqtisodiy o'sish sur'atlari ja'dallashtirish va sifatini yaxshilash orqali bevosita ishlab chiqarishda iqtisodiy tafakkur etish imkoniyatiga ega bo'lgan mutasaddi shaxslar kognitiv iqtisodiy tafakkurini yuksaltirishga jiddiy e'tibor qaratish zarur, deb hisoblaymiz. Ushbu tovfiga davlat organlari xodimlarini, rahbarlarni, tadbirkorlarni, professor-o'qituv-chilarni, tadqiqotchilarni, iqtisod-chilarni, OAV xodimlarni kiritish mumkin. Ushbu tovfiga mansub shaxslarning tafakkuri, iqtisodiy fikrash qobiliyatni, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'min-

lashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ular iqtisodiy reallikni aks ettiruvchi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash, umumlashtirish, tahsil qilish, turli omillarning ta'sirini aniqlash, ularga tayanan nazary va amaliy uksolalar chiqarishda, iqtisodiy taraqqiyot natijalarini xalq orasida targ'ibot qilishda kelajakda iqtisodiy taraqqiyot yo'nalişlarini belgilab berishda ularning ijrosi bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilishda bevosita ishlab chiqish.

Boshqacha aytganda, ushbu tovfiga mansub aholi qatlamlari, bir tomonдан, milliy iqtisodiyotning holati, uning globallashgan jahon xo'jaligidagi mavqe, iqtisodiy o'sish sur'atlari va sifati uchun mas'uldarlar. Ikkinchisi tomonidan esa ular vaziyat taqozi etganda, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy yuksalish sur'atlariiga ega bo'lgan mutasaddi shaxslar kognitiv iqtisodiy tafakkurini rivojlantirishda imkoniyatiga egadir. Shu sababli makrova mikro darajada yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar uchun ularning moddiy va ma'naviy javobgarligini oshirish, ayni paytda ularni taraqqiyotning yuksalishini qaratishda iqtisodiy tafakkurini rivojlantirishda imkoniyatiga egadir.

### Iqtisodiy savodxonlik barchamizga suvdek zarur

Jamiyatda inson iqtisodiy faoliyati, ya'ni mehnati evaziga ishlab chiqarilgan barcha moddiy va ma'naviy noz-ne'matlarni, pirovard natijada, inson iste'molini ta'minlab berishini, uning ehtiyojlarini qondirishni mo'jaliga oladi. Inson o'zining hayotiy ehtiyojlarini qondirish ilinida tinimizs mehnat qiladi, iqtisodiy faoliyat yuritadi.

Bizning nazarmizda, iqtisodiy taraqqiyot faqat noz-ne'matlarni ishlab chiqarish bilan emas, balki ularning iste'moli bilan ham uzviy bog'liq. Chunki iste'mol - bosh maqсад, ishlab chiqarish esa unga erishish vositasidir. Yuksal iqtisodiy onga va tafakkur vositasida ist

Oramizda hamma narsani davlat yoki hokimiyat qilib berishi kerak, deb o'yaydigan va ularga suyanib yashayotganlar topiladi. Hozir zamon o'zgaryapti, texnologiyalar rivojlanyapti. Shunga qarab jamiyat ham, odamlarning dunyoqarashi va intilishlari ham o'zgarishi kerak. To'g'ri, hamma ham kossini ko'tarib, davlatga ko'z tikib turgani yo'q. Kimdir o'qish yoki oilasini boqish uchun xorija ketyapti, birov arava surib, ro'zg'or tebratyapti...

Ammo jamiyatda befarqliq, ijtimoiy mas'uliyatizlik, boqimandalik holatlari ko'p uchramoqqa. Misol uchun, uy oldida chiqindi to'plansa, nega men tozalayman, ko'chamizni ta'mirlash kerak bo'lsa, nega biz qilamiz, deymiz. Mas'uliyatdan qochamiz, uni kimgadir yuklashga urinamiz yoki kimdir qilib berishini kutamiz. Men ham shu jamiyatda yashayapman, uning bir bo'lagiman, uni yaxshi tomonga o'zgartirish uchun harakat qilishim kerak, degan fikr biza begona bo'lib qolgandek go'yo. Xo'sh, odamlarning bu darajada boqimanda bo'lib qolishiga nima sabab bo'yapti, uning oldini olish uchun nima qilish kerak? Quyida ekspertlar bu haqda fikr bildirishdi.

#### MUSULMON ODAM BOQIMANDA BO'L MAYDI

**Toshmuhammad ABILOV,**  
**Ishixon tumani bosh imom-xatibi:**  
- Tarixa payg' ambarlarning hammasi bivor kasb bilan shug'ullangan. Jumladan, Muhammad (s.a.v) savdogar, Nuh (a.s) usta, Dovud (a.s) usta temirchi, Zakariyo (a.s) duradgor bo'lgan. Insonlar doim bivor kasb bilan shug'ullanishga buyurilgan.

Kitoblarda yozilishicha, bir yigit masjidda erta-yu kech o'tirkagan. Payg'ambarimiz "Bu yigit kim?", deb so'rabdilar. Yigit masjidda o'zini ibodatga bag'ishlaganini aytishibdi. "Buni bola-chaqasi yo'qmi, ularning rizqini kim beradi?", deb so'rabdilar. Yigitning bola-chaqasi bor, ularning rizqini yigitning akasi berib turadi, deb javob qaytarishibdi. Shunda Payg'ambarimiz "Bu yigida uning akasi yaxshiroq ekan, musulmon odam boqimanda bo'l maydi", degan ekanlar.

Keyingi paytlarda jamiyatimizda bivor ishning boshini tutmagan, boqimandalar ko'payib bormoqda. Juma kuni masjidga bir yigit muhtojlarga pul berilyapti ekan, saratonga chalingaman, menga ham yordam beringlar, doriga pul kerak, deb keldi. To'g'risi, baquvvat, ko'rinishi durust bu yigitning gapi hammani hayron qoldirdi. So'rashirsak, bemor emas, hech bir muhtojlik joyi yo'q. Ishlagisi kelmaydi, bu uning uchun osor pul topish yo'li, ya'ni firibgarlikni kasb qilgan ekan.

Oramizda boquvchisini yo'qtgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj, nogiron yoki yolg'izlar bor. Ularga davlat tomonidan tegishli tartibda yordam ko'satsilmoqda. Biroq to'rt muchasib sog', o'ziga to'q bo'lsa ham tilanchilikni kasb qilgan, bersang, yeyman, ursang, o'laman qabilida davlatdan yordam oladigan boqimandalar ularning haqiga sherik bo'lishdan, birovning haqini yeishdan qo'rqmayaapti. Dinimizda bir kunlik ozuqasidan ko'p taomi bo'lgan inson miskin, faqir hisoblanmaydi, unga sadaqa berish haromdir, deyilgan. Davlat tomonidan imkoniyati cheklangan, yetim va muhtojlar uchun tayinlangan yordamni o'ziga to'q kishilarning olishi ularning haqini yeish bilan teng.

Payg'ambarimiz aytdilarki, kim tilanchilikdan bitta eshik ochadigan bo'lsa, Allah unga faqirlikdan yetmish eshikni ochadi. Shuning uchun oilda farzandlarimizga o'nak bo'lib, halol luqma yedirib, to'g'ri tarbiya bersak, musulmon odam bivor kasb bilan shug'ullanish, halol rizq topishi vojibligini o'rgatsak, diyonatlari farzandlar tarbiyalagan bo'lamiz.

#### QO'LDA BERGANGA

# ODAMLAR ▼ NEGA BOQIMANDA bo'lib qolmoqda?



#### ...QUSH TO'YMAYDI YOXUD INSONGA E'TIBOR KERAK

**Mirzo IXTIYOROV,**  
journalist:

- Keyingi paytlarda ayrim odamlarning boqimanda bo'lib borayotganligi haqidagi gaplar tez-tez qulqoqa chaliniw turibdi. Shunday odamlar ham borki, qo'lini souvgu suvgaga tekkitmasdan yoki ostona hatlab ko'chaga chiqmasdan bivor ehtiyoji, kamiko'sti bo'lsa, barchasini davlat, hokimlik qilib berishi kerak, deb hisoblaydi. Xo'sh, bu holat qanday yuzaga keldi?

To'g'ri, keyingi paytlarda fuqarolar murojaatlariga bo'lgan e'tibor tubdan o'zgardi. "Xalq davlat idoralari emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak", degan tamoyil ustuvor ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Bu jarayonda mutasaddi rahbarlar mahallalarga borib, uyma-uy yurishni, odamlarni qiyinayotgan muammoli masalalar bilan qiziqishni boshladi. Haqiqatan ham "qo'li kalta", kuni o'tishi uchun bivor ishni boshlay olmayotganlar ham aniqlanyapti. Ulariga ozgina yordam ko'satsila, deylik, ishini boshlab olishi uchun imtiyozi kredit yoki subsidiya ajratilsa, qaysidir faoliyat turini boshlashiga turtki berilsa yetarli. O'z "aravasini tortib" ketayotganlari ham bor. Bunday kishilarga baliq emas, qarmoqni bersangiz bo'ldi aslida.

Ammo davlat idoralarining xalqqa xizmat qilishi asnosida shunday toifa odamlar shakllandiki, ularni ko'rib, yoka ushlaysiz, xolos. Doimiy ravishda fuqarolar murojaatlari bilan ishlashimizga, viloyat sektor rahbarlarining sayyor qabullarida ishtirok etishimizga to'g'ri keladi. Ana shu qabullarga keladigan ayrim kishilarni tanib ham qolganman. Ularни oddiygina qilib "dejurniy" deb qo'ya qolamiz.

Ana shunday sayyor qabullarning birida viloyatimiz tumanlaridan birida yashovchi ayol "Tuman hokimi menga yordam bermayapti", "Ayollar daftari"ga kiritmayapti. Menda uning qasdi bor", dedi. Sektor rahbari tomonidan holatni xolis o'rganish va xulosamizni berish taviysi etildi biz journalistlarga. Oradan bir muddat o'tib, o'sha tumanga haqiqiy holatni o'rganish, ayolning yashash sharoiti bilan tanishish, mahalliy hokimlik tomonidan nega unga yordam ko'satsilayotganligiga aniqlik kiritish maqsadi da ijodiy guruh yubordik.

Ma'lum bo'ldiki, murojaat qiluvchi ayolga bir emas, ikki emas, bir necha marta moddiy yordam ko'satsilgan ekan. "Bechora" ayol ikki qavati namunaloyiha asosida qurilgan yangi binoda yashar, uyingin yonida esa u kishiga qarashli bo'lgan savdo do'konini ham bor ekan.

Holbuki, bugun qanchadan qancha bemor, yolg'iz, davlatning yordamiga ehtiyoji

bo'lgan odamlar bor. Yuqoridagi ayolga o'xshagan "navbatchi" murojaatchilar vijdoni uyg'onib, shu haqda o'ylab ko'rsalar, davlat idoralari vakillari esa odamlarni kambag'allikdan chiqarish, ularga moddiy yordam ko'satishtorishasida ishlarni amalga oshirishda haqiqiy ehtiyojmandlar ni to'g'ri tanlasalar yaxshi bo'ldi.

Ayrim hollarda mas'ullarning o'z qabuliga kelgan yuqoridagi kabi shartakilik qilib, odamlarning e'tiborini tortgan holda, uyalmasdan "dod-voy" qiladiganlarga e'tibor qaratib, uni tinchitish maqsadida qo'ygan talablarini mintazam bajarib kelayotganligi ham "ber-ber" deyishdan to'ymayotgan boqimandalar sonining ortishiga sabab bo'layotgandir, ehtimol! "Qo'ldan berganga qush to'ymas", degan naql bor xalqimizda. Shuning uchun avalo, odamlarimizni mehnatga o'rgatsak, "qora qozon"i har kuni qaynab turishi uchun kasbga yo'naltirasak, davlat uchun ham, jamiyat uchun foydadan xoli bo'lmaydi.

Yana bir jihat. Yuqoridagi fikrlar orqali murojaat bilan keladiganlarning hammasi ham boqimanda bo'la, davlatdan bivor narsa undirish ilinjida yuradi demoqchi emasmissiz. Tanganing ikkinchi tomoni bo'lganidek, ba'zi hollarda davlat idoralari vakillarining ham fuqarolar murojaatiga e'tiborsiz qarab, ularning murojaatlarini soxta dalolatnomalar tuzgan holda yopib yuborishlari haqida ham eshitib qolamiz. Aslida kasallik yoki ro'zg'ordagi yetish-mochchiliklar sabab moddiy ko'mak yoki imtiyozi davorlanish uchun murojaat qiladiganlar ham bor. Ular ming bir istihola bilan, noilojikkidan yordam so'radyi. Afsuski, mana shunday holatlarda mutasaddilar tomonidan qilingan murojaatning e'tiborsiz qoldirilishi yoki fuqarolarni mujmal va'dalar bilan ortga qaytarishi ularda davlat idoralariga, mansabdor shaxslarga bo'lgan ishonchning so'nishiga olib keladi.

Insonga ko'p narsa kerak emas, ozgina e'tibor berilsa bas. Hech bo'lmaganlar ularning dardiga sherik bo'lib, murojaatini tinglash, masalaning yechimi yuzasidan o'ziga tavsiva va yo'nalish berishning o'zi ham yetarli bo'la ba'zida.

#### BOQIMANDALIK XARAKTER EMAS, OILADA SHAKLLANADI

**Suyun KARIMOV,** professor:

- Odam borki, to'q, farovon yashashni istaydi. Ammo bunday hayot kechirishning yagona yo'li halol mehnat ekanligini hamma ham anglab yetavermaydi. Negaki, oilda bolalikdan mehnat qilishga, halol rizq terishga o'rgatilmaydi. Aksar ota-onalar farzandini juda erka, taltaytirib, aytganini muhayyo qilib tarbiyalaydi. Yana shunday toifadagi ota-onalar borki, bivor ishning boshini tutmaydi. Kuni davlatdan

yordam so'rash, hokimiyat eshigida sarg'ayish bilan o'tadi. Hatto farzandlarini, ularning tarbiyasini qarindoshiga ishonib, o'zi xorriga ketayotganlar ham topiladi oramizda. Endi o'ylab ko'ring, bunday ota-onalaridan farzandlari nimani o'rganadi, qanday tarbiya oladi, ular kelajakda kim bo'lib yetishadiyu, katta hayotga qanday qadam qo'yadi?

Kasbim o'qituchi bo'lgani uchun yaxshi bilaman. Bola matabga "suyagi qotgan" holda keladi. Ungacha tarbiyasi, dunyoqarashi oila muhiyida shakllanib bo'lgan bo'ladi. Maktabda, litseyda, texnikumda, oly o'quv yurtida bo'lagaga asosan ta'lim beriladi. Bu dargohlarda beriladigan tarbiya, mahalla ahliidan olinadigan ibrat esa oilda berilgan tarbiyaga qo'shimcha bo'lishi mumkin, xolos. Agar boshlang'ich tarbiya poydevori loydan yasalgan bo'lsa, uning ustiga qanday qilib pishiq g'ishtdan sifatli imorat qurish mumkin?

Oilada farzandlarimizga o'rnak bo'lib, mehnatsevarlikni, kitob o'qishni, to'g'ri yashashni o'rgatsak, bola hayotining keyingi bosqichlari-dagi tarbiyani hazm qila oladi, uni ta'lim bilan uyg'unlashirib, boyitib boradi. Qolaversa, kela-jakda dangasa, ishyoqmas, otasonasining nafaqasiga ko'z tikib, boqimanda bo'lib o'tirmaydi. Ulug' adib G'afur G'ulomning "Hasan kayfiy" hikoyasida aytiganidek, "aql va mehnat omon bo'lsa", sog'lom fikr tantana qiladi. Sog'lom fikrlaydigan insondan esa o'ziga ham, jamiyatga ham faqat manfaat keladi.

"Oltin baliqcha" ertagini bilmagan odam bo'limasa kerak. Teshik tog'orasi butun bo'lishini umr bo'yi orzu qilgan kampir omadga yuz tutdiyu, malikaga aylandi. Afsuski, noshukriliq uchun yana teshik tog'orasi bilan goldi. Aytmoqchi bo'lganim, hozirgi tinch, farovon kunlарimizga shukr qilib, boqimandalik kayfiyatidan voz kechib, yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanimishim, farzandlarimizni o'qitib, ilmi, hunari, xalqimizga foydasiga tegadigan insonlar qilib tarbiyalashimiz kerak.

Davlatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda, "Xalqimiz yaxshi yashashni, rivojlangan davlatlar qatoriga chiqishni istaymiz. Lekin hech kim mehnatsiz, mashaqqatsiz natijaga erishmagan, erisholmadiyim! Prezident kelib yo'nalish beradi, vazifa qo'yadi. Ularни kim amalga oshiradi? Odamlar qachon uyg'onadi? Biz ancha nar-sada kechikkanmiz. Agar endiyam uyg'onmasak, oldimizga qo'yigan katta maqsadlarimizga yetolmaymiz. Birov kelib, biz uchun hech nar-sa qilib bermaydi".

**Fazliddin RO'ZIBOYEV.**  
"Zarafshon"  
muxbir.

#### ↓ Mulohaza



## Alyans Fransez – madaniyatlararo ko'pri

Fransuzlar ilk ta'limdanoq dunyo madaniyati o'choqlari bilan tanishtiriladi. Samarcand ularning talqinida mana shunday sivilizatsiya o'choqlaridan biri. Ettimol, shuning uchun ham Yevropa davlatlari orasida Fransiyadan Samarcandni ko'rish uchun kelayotgan sayyoohlari soni birmuncha ko'proq. Tabiiyki, madaniyat, san'atga alohida e'tibor qaratilayotgan mamlakat ahli bu yerga kelgach, ular uchun muhim sanalgan tashkilot "Alyans Fransez" bor-yo'qligi bilan qiziqadi.

Yaqinda Samarcandda Fransiya Prezidenti Emmanuel Makronning mamlakatimizga tashrifi chog'ida ko'pchilik kutgan markzur Alyansning ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Aslida ushbu alyans bundan bir necha yil ilgari ham Samarcandda faoliyat yuritar edi. Ammo nega to'xtab qoldi, markaz faoliyatini qanday davom ettirmoqchi?

- To'g'ri, Samarcandda ilk bor "Alyans Fransez" 1994-yilda ochilib, qizg'in faoliyat yuritган edi, ammo ma'lum sabablarga ko'ra, 2012-yilga kelib, u ishini to'xtatdi, - deydi Samarcanddagagi "Alyans Fransez" markazi rahbari Gulnoz Yormatova. - Xorijda fransuz tili va madaniyatini targ'ib etish maqsadida tashkil etilgan markaz markaz dunyoning 132 mamlakatida 900 ga yaqin tashkilotiga ega. 1883-yilda Parijda asos solingen xalqaro Alliance Française fondi yuqorida ta'kidlaganimday, fransuz tili va madaniyat targ'ibotini amalga oshiradi. Ya'ni, mazkur jamg'arma davlat budgeti mablag'lari hisobiga emas, balki xayıriya tushumlari evaziga kun ko'radi. Fransiyada madaniyat, san'at rivoji uchun xayıriya qilish odatiy holga aylangan.

Samarcanddagagi "Alyans Fransez" qanday ishlarni amalga oshirishi mumkin? Bu yerda markazning o'z maqsadlaridan kelib chiqqan holda ko'rgazmalar tashkil etishni rejalashtir-gammiz. Shuningdek, fransuz kinosi kunlari, san'ati namoyishi ham o'tkazilishi belgilangan. Samarcandda ayni kunda 500 nafar talaba fransuz tili filologiyasi yo'nalishida tahsil olmoqda. Hozirda bu raqam bir necha yil avvalgidan oshgan. Fransuz tilini biluvchi qilish kerak.

Shuningdek, yaqinda markazimizda qiziquchvchilar uchun qisqa o'quv kurslari tashkil etilishi belgilangan. 2024-yil (ayni kunlarda tegishli ruxsatnomalar hujjalari kurtayipmiz) yanvar oyidan til bilish sertifikatlariga ega bo'lishni istovchilardan Delf hamda Dalf maxsus sertifikatlari uchun imtihon olish yo'liga qo'yildi.

Bu maqsadlar uchun markazda yetarli sharoitlar yaratilgan. O'quv xonalari eng zamonaiviy jihoz va texnologiyalar bilan ta'minlangan.

**G.MO'MINOVА.**

**Hasan NORMURODOV** – (1939-2021) Kat-taqo'rg'on tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Qahramoni.

**19-NOYABR**

**Muhsinjon ASHUROV** – 1949-yilda Samarcand shahrida tug'ilgan. Fizik olim. O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi.

**22-NOYABR**

**Muxtor O'RALOV** – (1938-2014) Xatirchi tumanida tug'ilgan. Biologiya fanlari doktori. **Asror JO'RAYEV** – (1911-1983) Samarcand shahrida tug'ilgan. Aktyor va rejissyor. O'zbekiston xalq artisti.

## SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

#### MUASSIS: Samarcand viloyati hokimligi

#### Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarcand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 339 nusxada chop etildi. Buyurtma 621. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshehba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.